

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

Lingvistika

2022 Vol. 4 (1)

www.linguistics.tsuull.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Dilrabo Baxronova, Mohinur Keldiyorova

Olam lisoniy manzarasida antropozoomorf leksikaning tavsiflovchi roli.....4

Munavvara Qurbonova

O'zbek bolalari nutqida sintaktik birliklarning deydik vazifasi.....16

Гулшан Асилова

Национальные реалии узбекского языка: проблемы перевода и лингводидактики.....25

Cöre Hundayberdiyev

Özbek edebî dilinde ses uyumunun yok edilişi.....38

Durdona Mahkamova

Terminologik tizimda leksik modernizatsiyalashuvning voqelanishi.....51

Muattar Mo'minova

Ingliz va o'zbek tillarida time "vaqt" leksemasi semantikasi.....61

Xilola Uzakova

"Boburnoma"da "sadoqat" konseptining ifodalanishi.....79

Ma'suma Mo'minova

Badiiy matnda "suv" komponentining madaniy kod sifatidagi funksiyasi.....89

Nilufar Azizova

"Devonu lug'otit turk"da qarindoshlik munosabatlarini ifodalovchi leksemalar mikromaydoni.....100

Shaxribon Musurmankulova

O'zbek-turk frazemalarining parallel korpusini shakllantirishda diaxron yondashuv.....110

Abdullayev Ramazon, Nabiyeva Parvina

"Boburnoma"dagi ayrim salbiy fe'l-atvor sifat-leksemalarining tezaurusi.....119

O'rinova Zarifa

O'zbek she'riyatida toponimlarning pretsedent nom sifatida qo'llanishi.....128

Zarnigor Davronova

Abdulla Avloniyning dramatik asarlarida antroponimlar tahlili.....137

Mavjuda Lafasova

Omonimlar shakllanishida idrokning o'rni.....145

Mavjuda Artukmetova

Yozma nutq shakllanishining psixolingvistik tahlili.....153

Munisa Abduazizova

O'zbek va ingliz tillaridagi aynan bir xil soma bilan ifodalangan sinonim somatik iboralar tahlili.....160

Iqlima Ergasheva

O'zbek tilidagi harakat-holat bildiruvchi lakunar birliklarning semantik tasnifi.....172

“Devonu lug‘otit turk”da qarindoshlik munosabatlarini ifodalovchi leksemalar mikromaydoni

Nilufar Azizova¹

Abstrakt

Maqolada semantik maydon metodi asosida tahlil qilish xususiyatlari, mumtoz manbalarni, xususan, “Devonu lug‘otit turk”dagi ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi leksik birliklarni semantik maydon asosida o‘rganish masalalari aks etgan. Semantik maydonga oid o‘zbek tilida amalga oshirilgan tadqiqotlar tavsiflangan. Semantik maydon leksemalar o‘rtasidagi semantik munosabatlarga asoslanishi, shu bois leksema semantikasi bilan bog‘liq jarayonlarni aks ettirishi qayd etilgan. “Devonu lug‘otit turk” leksikasining turli ijtimoiy sohalarni qamrab olishi, mazmuniy maydonni hosil qilishi, o‘z ichida kichik mikromaydonlardan iborat ekanligi ko‘rsatib berilgan. Semantik maydon tahlili qarindoshlik munosabatlarini ifodalovchi leksemalar misolida tahlil qilingan. Semantik maydonning mumtoz manbalar til xususiyatlarini yoritishda, lug‘at boyligini aniqlashda, qomusiy xarakterini ochib berishda muhimligi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: *lug‘at, semantik maydon, semantik munosabatlar, semantik jarayonlar, giponimik, giperonimik munosabatlar, ijtimoiy munosabatlar, qarindoshlik munosabatlari.*

Kirish

Semantik maydon nazariyasi tabiiy fanlar integratsiyasi asosida tilshunoslikka kirib kelgan metod hisoblanadi. Semantik maydon leksemalarni o‘zaro semantik munosabatlarda ichki aloqadorlikda tahlil qilishda ahamiyatlidir. Shuning uchun ham keyingi yillarda leksik birliklarni semantik maydon nazariyasi asosida o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbek tilshunosligida semantik maydon nazariyasi talqini, asosan, hozirgi o‘zbek adabiy tili nuqtayi nazaridan amalga oshirilgan. I. Qo‘chqortoyevning semantik maydon nazariyasi talqinida so‘z va uning ma’no valentligiga urg‘u berilgan va nutq fe’llarini 8 semantik

¹Azizova Nilufar – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti.

Iqtibos uchun: Azizova, N. 2022. “Devonu lug‘otit turk”da qarindoshlik munosabatlarini ifodalovchi leksemalar mikromaydoni”. *O‘zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika* 4(1): 100-109.

maydonga bo'linishi va bu kichik semantik maydonchalarning har biriga mansub fe'llar o'z doirasida muayyan integral sema asosida birlashishlari tahlil qilib berilgan [Qo'chqortoyev,1977:35]. Semasiologiya sohasi bo'yicha mutaxassis olim M.Mirtojiyev so'zning semantik taraqqiyoti haqida quyidagicha fikr bildirgan: "So'zning semantik taraqqiyoti masalasi semasiologiyaniig eng muhim tomoni bo'lib, uning tarixi va hoziri bilan chambarchas bog'lanadi. Lekin shu bilan birga uning boshqa tomonlari ham bor. Bu esa leksik ma'noning semantik tarkibi, so'zning semantik hajmidagi ahamiyati, o'zaro paradigmatik va sintagmatik munosabati va h. Shunga ko'ra semasiologiya bir necha yo'nalishlarda tadqiq etib kelinmoqda". Ulardan biri leksik ma'nolarni semantik maydonlarga ajratib tahlil etishdir. [Mirtojiyev, 2010]. O'zbek olimalaridan Sh.Iskandaro-va leksikani mazmuniy maydon asosida o'rganish borasida chuqur ilmiy izlanishlar olib borgan. Uning fikricha, "tilni maydon sifatida o'rganish tilni aks ettirish tabiatini ochishda juda katta ahamiyatga ega, chunki obyektiv olam bir butun sistema sanalib, sistemaning uzvlari muayyan mikrooolamlardan iborat bo'ladi. Bu mikrooolam inson ongi orqali tilda o'z ifodasini topadi. Demak, tilni maydon sifatida o'rganish olam – ong – til dialektik munosabatini yorqin ifodalashga yordam beradi" [Iskandarova,1998:47].

R.Rasulov "holat" arxisemasiga ko'ra bir semantik maydonga kirgan fe'llarni to'qqiz semantik maydonchaga ajratib tahlil qilgan. [Rasulov,1991:16-24]. Z.Xolmanova fikricha, dunyo va o'zbek tilshunosligidagi tadqiqotlarda semantik maydon, asosan, sinxron plandagi izlanishlarda kuzatiladi. Keyingi yillarda til tarixiga oid tadqiqotlarda, xususan, mumtoz badiiy manbalar tiliga bag'ishlangan tadqiqotlarda semantik maydon metodidan foydalanilganini kuza-tish mumkin [Xolmanova,2022, 43].

M.B.Abdiyev semantik maydondagi giponim va giperonimga alohida to'xtaldi. Jumladan, o'zining tadqiqot ishida *polos* giperonimining giponimlari sifatida gilam, sholcha, namat, poyondozi kabilar-ni tahlil qilgan [Abdiyev, 2005:22].

F.Safarov O'zbek tilida son-miqdor mikromaydoni va uning lisoniy-nutqiy xususiyatiga bag'ishlangan tadqiqot ishida miqdor mikromaydoniga alohida to'xtalib uni uchta maydonga ajratib o'rga-nadi: 1) mavjudot son-miqdori maydoni;

2) o'lchov-miqdor maydoni; 3) harakat miqdori maydoni.

Bundan tashqari, B. Yo'ldoshev maydon nazariyasining tilshunoslikka ta'sirini [Yoldoshev,2002:44], M.Abduvaliyev sintaktik to'siqsizlik maydonini [Abduvaliyev 1988, 66], H.Hojiyeva hurmat maydonini

tadqiq qildi [Hojiyeva,2001].

Semantik maydon metodi tarixiy leksikologiya yo'nalishida ham aniq ilmiy xulosalar berishga xizmat qiladi. Jumladan, "Devonu lug'otit turk" asaridagi ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi leksemalar semantik maydoni ijtimoiy-siyosiy tushunchalar mikromaydoni, muloqot faoliyati mikromaydoni, mehnat faoliyati mikromaydoni, kasb-hunar mikromaydoni, qishloq xo'jaligi mikromaydoni, chorvachilik mikromaydoni, qurilish mikromaydoni, musiqa mikromaydoni, sport mikromaydoni, ta'lim-tarbiya mikromaydoni, tibbiyot mikromaydoni kabi semantik guruhlariga birlashadi. Har bir semantik maydon o'z ichida kichik semantik guruhlarini qamrab oladi. Masalan, birgina kasb-hunar mikromaydoni quyidagi lugaviy birliklardan iborat: arqış –chopar, elchi, xabarchi: Aning arqışı keldi – Uning elchisi, xabarchisi keldi (DLT, I, 123). Bu so'z eski turkiy tilda "karvon" ma'nosida ham qo'llangan. Choparning shunday atalishiga sabab ham aynan karvon xabari bilan bog'liq; ayaqçı – kulol. Bu so'z qadimgi turkiy tildagi *ayaq* (idish, oyoqli idish, uch oyoqli idish) so'ziga aloqador. Ayaqchi ayaq sirladi – kulol idish (kosa, lagan) ustiga gul solish, sirlash uchun tayyorgarlik ko'rdi (DLT, 467 b.); *Emçi, otaçı, sağun* – tabib. *Emçi* so'zida *em* – "davolamoq" fe'liga -çi ot yasovchi qo'shimchasini qo'shish orqali davolash bilan shug'ullanadigan shaxs oti yasalgan (DLT, 44 b.) Asarda tabib ma'nosidagi *otaçı* so'zi ham qo'llaniladi. *Otaçı* so'zi ham ot – dori, giyoh so'ziga -çi ot yasovchi qo'shimchasini qo'shish orqali "giyohlar bilan davolovchi tabib" ma'nosidagi kasb-hunar nomini hosil qilgan (DLT, 187 b.); *etmākçi* – novvoy. Bu kasb-hunar nomi *etmāk* (non) so'ziga -çi shaxs oti yasovchi qo'shimchasini qo'shish orqali shu faoliyat bilan shug'allanuvchi shaxs otini yasagan; *etçi-qassob*. Bu leksema go'sht ma'nosidagi *et* so'ziga -çi shaxs oti yasovchi qo'shimchani qo'shish orqali shu faoliyat bilan shug'allanuvchi kasb-hunar egasi nomini hosil qilgan;

yatçı – afsungar. Bu so'z yada toshiga aloqador. Qadimda yomg'ir va shamol chaqirish uchun shunday toshlar bilan afsungarlik qilingan. *Yatçı* yatladı – afsunchi yom'ir yog'dirish uchun yada toshi bilan duo o'qidi. (DLT, 119 b.); *yırağu* – cholg'uchi. Bu so'z g'azal, kuy ma'nosini anglatuvchi *yır* so'zidan yasalgan (DLT, 119 b.); *yiçi* – tikuvchi. Bu so'z *yi* (kiyim choki) so'ziga -çi qo'shimchasini qo'shish orqali shu faoliyat bilan shug'allanuvchi shaxs otini hosil qilgan; *salchı* – oshpaz (DLT, 206 b.); *tabuğçı* – xizmatchi. Bu kasb nomi *tabuğ* (xizmat qilish, ibodat) so'ziga shaxs oti yasovchi -çi qo'shimchasini qo'shish orqali yasalgan (DLT, 240 b.); *terguçi* – dasturxon tuzovchi

shaxs. Bu kasb nomi tergu (lagan, dasturxon) leksemasiga aloqador (DLT, 226 b.).

“Devonu lug’otit turk” asaridagi ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi leksemalarning yana bir guruhini qarindoshlik munosabatini ifodalovchi leksik birliklar tashkil etadi. Qarindoshlik munosabatlari turkiy xalqlar ijtimoiy hayotida muhim o’rin tutgan. Oilaning mustahkamligi va qarindoshlar orasidagi totuvlik davlat va jamiyatning asosiy rivojlanish mezonini sanalgan. Tarixiy qarindoshlik-yaqinlik munosabatlarini aks ettiruvchi bunday leksik-semantik guruhlar har bir tilning asosiy lug’at fondiga kiradi. Turkiy tillardagi qarindoshlik-yaqinlik terminlari L.A. Pokrovskaya izlanishlarida leksik-semantik jihatdan tadqiq etilgan [Pokrovskaya, 1961].

“Devonu lug’otit turk”dagi qarindoshlik ma’nosida birlashgan leksemalar 60 dan ortiq. Eski turkiy til ifoda imkoniyatlarining ko’pligi qarindoshlik ma’nosida birlashuvchi mikromaydonda o’z ifodasini topadi. Turkiy xalqlar tilida bir oiladagi aka-uka, opa-singil, er va xotin urug’larining har biri alohida leksemalar bilan ifodalangan. Bu esa turkiy xalqlar so’z boyligi, til imkoniyatlariga yaqqol misoldir. Bu xususiyatni hozirgi roman-german oilasiga mansub tillarda uchratmaymiz. Ularda opa-singil, aka-uka ma’nosi bir leksema ostida birlashadi. “Devonu lug’otit turk”da qarindoshlik-yaqinlik munosabatlarini ifodalovchi leksemalar quyidagicha:

Qadimgi va eski turkiy tilda **oguš** so’zi “qarindosh” ma’nosida qo’llangan. **Avurta** “enaga” ma’nosini bildiradi: *ol avurta tutundi*–u yenaga yolladi (DTS, 71). Bu so’z “Qutadg’u bilig” asarida ham shu ma’noda kelgan. Asarda bolaga enaga tayinlayotganda juda e’tiborli bo’lish kerakligi, chunki enaning dunyoqarashi, hayotga munosabati, axloq-odobi farzandga ham katta ta’sir o’tkazishi aytib o’tilgan. Shuning uchun enaning nasl-nasabi pokligiga alohida e’tibor qaratilgan: *Avurtasi edgü kişi tut ariğ, oğul qiz ariğ qopğa turğa fariğ*–(bola) murabbiysini yaxshi va pok kishidan olgin, o’g’il-qiz pok o’sadi, (nojo’ya ishlardan) forig’ bo’ladi (DTS, 71).

“Devonu lug’otit turk”da keltirilishicha, **aba** so’zi o’g’uzchada “ona” degan ma’noni bildiradi. Tubutlar tilida “ota” ma’nosini bildiradi. Qarluq turkmanlari *apa* deydilar. Umumiy olib qaraganda esa bu so’z “ajdod” degan ma’noni bildiradi. [DLT, I, 114]. “Qadimgi turkiy tillar lug’ati”da bu so’zning kelib qichishi Odam ato va Momo Havvo nomi bilan bog’liqligi aytib o’tilgan. “Qutadg’u bilig”da ham bu so’z “ajdod” ma’nosida kelgan: *Aba yazti ersä bayat qinati* - Ajdodlar gunoh ish qilganda, ularni Xudo qiynadi [QBH]. Bu o’rinda ajdodlar deganda Odam ato va Momo Havvo nazarda tutilmoqda. Ular

taqiqlangan mevani yeb, o'zlarini mashaqqatga qo'yganlariga ishora qilinmoqda. Alisher Navoiy asarlarida "ota" ma'nosidagi *ab* so'zi qo'llaniladi [ANATIL, I, 21]:

Bazmida hub ila adab ham,
Ul nav'ki ammu holu ab ham.

Aba so'zi "yoshi katta bo'lmoq" ma'nosidagi *ab*- fe'liga -a qo'shimchasini qo'shish orqali yasalgan [ESTY, I, 56].

Qadimgi turkiy xalqlarda yaqin kishi, yaqin qarindosh yoki ko'ngilga yaqin insonlarga nisbatan **öz kişi** birikmasi qo'llangan. Bu bizning *öz kişi ol*- "bu bizning o'z yaqin kishimiz" ma'nosida. Bu so'z omonim xarakterida bo'lib yurak va qoringa tegishli a'zolar ham *öz* deb ataladi. Masalan, *özüm ağrıdı* - qornim og'ridi. Demak, ko'ngilga yaqin kishining hamda yurak, qoringa tegishli a'zolarining *öz* deb atalishi o'rtasida o'zaro aloqadorlik munosabati mavjud. Ya'ni yurakka yaqin kishi ma'nosida [DLT, I, 81]. *Öz kişi* "qo'li ishga qovushadigan, o'z hunariga mohir kishi" ma'nosida ham keladi [DLT, I, 81].

Insonning oxirgi farzandi **aştal oğul** deyilgan. Bu so'z "astalamoq, sekinlamoq" fe'liga bog'liq. Katta kishilardek o'zini ulug'sifat (keksa-qari) qilib ko'rsatuvchi bolaga *atač oğul* deyishgan [DLT, I, 86].

Xoqoniy turklari katta akalarini **ičqim** deb ataganlar [DLT, I, 95]. Bu so'zning ma'nosi "katta aka, ulug'"deganidir. Aka, ya'ni katta qiz (opa) ma'nosida **ača, ekä** so'zi qo'llangan. O'g'uzlar ezä deydilar [DLT, I, 116]. Qadimgi turkiy xalqlarda *aka* so'zi ham o'g'il bolalarga, ham qiz bolalarga nisbatan ishlatilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib bu so'z semantik o'zgarishga uchrab faqat ekrar jinsi vakillariga nisbatan qo'llanadi [DLT, I, 114]. Alisher Navoiy asarlarida *aka* so'zi bilan birgalikda og'a leksemasi ham qo'llangan [ANATIL, I, 72]. "Boburnoma"da ham bu so'z yoshi katta ayollarga nisbatan murojaat shakli sifatida qo'llangan: *Maxfiy kishilar borib akam bila yanga bila, Poyanda Sultonbegimni "aka" der edim [Boburnoma, 2002:146,I]; ...bir kun men akamni ko'ra kelganda onasi bila kelib meni ko'rdi [Boburnoma,2002:146,I]*. Gulbadanbegim asarida ham *oka* shaklida keltirilgan. Gulbadanbegim *onam* o'rnida *okam* hazratlari, *otam* o'rnida *bobom* hazratlari perifrazalarini ishlatgan [Gulbadanbegim, 1959].

Yetim; nima qilarini bilmaydigan, chorasiz insonlarga nisbatan **öksüz** leksemasi qo'llangan. "Devonu lug'otit turk" asari izohida bu so'z "aql, idrok" ma'nosidagi *ög* so'zidan yasalgani aytiladi [DLT, I, 122]. Lekin *ög* so'zi qadimgi turkiy tilda omonimlik xususiyatiga ega bo'lib "aql, zakovat" ma'nosidan tashqari "ona" degan

ma’noni ham anglatgan. Bizningcha, bu soʻzning kelib chiqishi oʻg “ona” soʻziga borib taqaladi. Ya’ni öksüz – yetim soʻzining ma’nosi “aqlini yoʻqotgan, nima qilarni bilmaydigan” emas, balki “onasiz”dir.

Nikoh kechasi kelin va kuyovga xizmat qilishga buyurilgan xizmatchiga **egätlik qarabaş** deyilgan. Bu soʻz kelinga nisbatan ham qoʻllangan. Umumiy ma’noda esa bu soʻz “xizmatchi” ma’nosida keladi [DLT, I, 167]. Nikoh kechasi kelin yonida xizmat qiluvchi xotin, yanga vazifasini bajargan insonga nisbatan **egät** atamasi ham qoʻllangan [DLT, I, 85]. Mazkur misollarga asoslanib qadimgi turkiy xalqlarning ijtimoiy hayotidagi toʻy marosimlarida kelin va kuyovning nikoh kechasida ularga xizmat qiluvchilar joriya, choʻrilardan boʻlgan, degan xulosaga kelish mumkin [Dadaboyev, 2017:47].

Qiz soʻzi omonim xarakterga ega boʻlib, asarda bir qancha ma’nolarda qoʻllanadi.

- 1) qimmatbaho narsa: *qiz neñ*;
- 2) choʻri: *qiz qırqın*–choʻrilar;
- 3) boʻyi yetgan qiz: *yinčkä qiz* – boʻyi yetgan, lekin turmushga chiqmagan qiz;
- 4) baxil odam: *qiz kişi* – baxil odam. Hozirgi oʻzbek adabiy tili-da qoʻllanadigan *qizgʻanchiq* soʻzining kelib chiqishi ham shu ma’no-ga borib taqaladi [DLT, I, 315].

“Qutadgʻu bilig”da bu soʻz “noyob” ma’nosida qoʻllangan: *Qayu näñ qiz ersä uş ol näñ küşüş, küşüş näñ tiläp bulmaz emgär öküş* – Qaysi narsa qiz (noyob) boʻlsa, oʻsha narsa azizdir, aziz narsani izlab topish qiyin, kishi (uni izlab) koʻp mashaqqat chekadi [QBN, 553]. “Qisasi Rabgʻuziy”da bu leksema “qiz farzand” ma’nosida qoʻllangan: *Qaçan Qābil tuğdı ersä anñ birlä bir qiz tuğdı* (15v3); *Nuhnun bir qizi bar erdi, birägu qolğali keldi, beräyin tedi* (27v10) [Abdushukurov, 2017:180].

Qavm-qarindoshlik nomlaridan biri boʻlgan **baldiz** soʻzi “xotinning singlisi” ma’nosida kelgan [DLT, I, 426]. Bu soʻz qadimgi turkiy tildagi “kichik qarindosh” ma’nosidagi *bal* soʻziga *-diz* affiksini qoʻshish orqali yasalgan [ESTY, II, 54]. Hozirgi oʻzbek shevalarida bu soʻz semantik jihatdan oʻzgarishga uchrab “erning ukasi” ma’nosida qoʻllanadi.

Baldir oʻgʻul// baldir qiz birikmasi “oʻgay oʻgʻil/qiz” ma’nosini bildirgan [DLT, I, 425]. Togʻ burniga oʻxshash koʻtarilib chiqqan narsa, boʻrtib chiqqan narsa, togʻ burniga ham *baldir* deyilgan. Demak, oʻgay oʻgʻil yoki qizning shunday atalishiga sabab “boʻrtib chiqqanlik, ortiqchalik” semasi hisoblanadi. Bu leksemaga ma’nodosh sifatida qanşiq leksemasi ham qoʻllangan. Masalan, *qanşiq ata* – oʻgay ota,

qanşiq oğul – o'gay o'g'il kabi.

Bundan tashqari, "Devonu lug'otit turk"da oilaviy muloqot faoliyatida qo'llanadigan bir qancha leksemalar keltirilgan. Bu murojaat shakllari yaqin qarindoshlar o'rtasida, ota-ona, yor-u birodar o'rtasida yoki kasb-hunar faoliyatida bo'lishi mumkin.

O'zining ziyrakligi, uddaburonligi, farosati va topqirligi yoki qalban yaqinligi bilan odamlarga xuddi o'z singlisidek tuyuluvchi yosh qiz **ekäč** deb atalgan. Bu so'z yosh qizlarni sevish, erkalash uchun ham qo'llangan [DLT, I, 86].

Bolalarni sevish, erkalash uchun **ulīč** murojaat shaklidagi so'z keltirilgan. Masalan, *ulīčim* – "o'g'ilcham, qarog'im" kabi. Bu so'z qarluq lahjasiga oiddir [DLT, I, 86]. Qadimgi va eski turkiy tilda bu murojaat shakli o'g'il bolalar bilan birga qiz bolalarga ham birdek qo'llangan. Keyinchalik esa faqat o'g'il bolalarni erkalashda foydalanilgan. Hozirgi o'zbek shevalarida, jumladan, Qashqadaryo, Surxondaryo shevalarida kichik yoshdagi o'g'il bolalarga nisbatan onasi tomonidan "ulim" murojaat shakli qo'llaniladi.

Xuddi kattalardek o'zini ulug'sifat ko'rsatuvchi bolaga nisbatan *atač oğul* birikmasi qo'llanadi [DLT, I, 86]. *Atač* leksemasi tarkibidagi –č affiksi qadimgi va eski turkiy tilda kichraytirish, erkalash ma'nosini berish uchun xizmat qilgan [Dadaboyev, 2017:42].

"Ona qiz, ya'ni o'zining ziyrakligi bilan hammaning onasidek hisoblanuvchi yosh qiz" ma'nosida **anač** leksemasi qo'llangan. Bu so'z qizlarni erkalatish uchun aytiladi [DLT, I, 86]. Hozirgi kunda "ona qizim" birikmasidagi murojaat shakliga aylangan. O'zbek shevalarida, jumladan, Toshkent shevasida "onash" tarzida aytiladi.

"Otaginam, otajonim" ma'nosidagi mehribonlikni bildiruvchi so'z o'rnida **ataqi** murojaat shakli ishlatilgan [DLT, I, 155]. Ona deb atamoq, ona deb murojaat qilish uchun esa *analadi* shakli qo'llangan [DLT, I, 302].

O'zidan katta opa yoki akaga nisbatan **ekälädi** so'zi qo'llangan [DLT, I, 302]. Bu so'z dastlab har qanday yoshi ulug' insonga nisbatan qo'llanilgan bo'lsa, keyinchalik faqatgina yoshi katta erkak jinsi vakillariga nisbatan ishlatilgan.

Ökälädi so'zi nimaningdir kattasi deb atamoq ma'nosida qo'llangan. Masalan, *Ol anī ökälädi* – U uni yurt kattasi deb yuritdi [DLT, I, 302]. Bu so'z hozirda Toshkent shevasi vakillari tomonidan keng ise'molga kirgan.

Ijtimoiy munosabatlardagi o'zgarishlar qarindoshlik tizimining ijtimoiy mavqeyiga ham ta'sir qildi va bir qator qarindoshlik terminlarining arxaizmga aylanishiga zamin yaratdi. Qarindoshlik ter-

minlarining semantik strukturasidagi o'zgarishlar sotsial-ijtimoiy muhit o'zgarishlari bilan bog'liq [IRLTY,1961:4].

Ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi leksik birliklarni maydon asosida o'rganish ijtimoiy-siyosiy vaziyatlar, xalq turmush tarzi, madaniy saviyasi va dunyoqarashidan dalolat beradi.

Adabiyotlar

- Abdiyev, M.B. 2005. *Sohaviy leksikaning sistem tahlili* (Samarqand viloyati kasb-hunarleri materiallari asosida). Filol. fan. dok.-ri diss. avtoref. Toshkent.
- Abduvaliyev, M. 1988. *To'siqsizlik maydoni va uni tashkil etuvchi sintaktik birliklar*. O'zbek tili va adabiyoti. №4.
- Abdushukurov, B. 2017. *"Qissasi Rabg'uziy" leksikasi*. Filol. fanlari doktori dissertatsiyasi. Toshkent.
- Gulbadanbegim. 1959. *Humoyunnoma*. Toshkent: Fan.
- Dadaboyev, H. 2017. *"Devonu lug'otit turk"ning til xususiyatlari*. Toshkent.
- Qo'chqortoyev, I. 1977. *So'z ma'nosi va uning valentligi*. Toshkent.
- Iskandarova, SH. 1998. *Leksikani mazmuniy maydon asosida o'rganish muammolari*. Toshkent: Fan.
- Yo'ldoshev, B. 2001. *Maydon nazariyasining tilshunoslikka ta'siri haqida*. O'zbek filologiyasi masalalari. Navoiy.
- Mirtojiyev, M. 2010. *O'zbek tili semasiologiyasi*. Toshkent: Mumtoz so'z.
- Покровская, Л.А. 1961. *Термины родства в тюркских языках*. Историческое развитие лексики тюркских языков. Москва.
- Расулов, Р. 1991. *Лексико-семантическое групп глаголов состояния и их валентности*. Ташкент: Фан.
- Xolmanova, Z. 2022. *Semantik maydon va semantik to'r imkoniyatlari*. "Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar" Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Vol. 1 №. 01.
- Холманова, З. 2009. *Бобурноманинг лексик тадқиқи*. Филол. фан. д-ри... дисс. Тошкент.
- Ҳожиёва, Ҳ. 2001. *Ўзбек тилида ҳурмат майдони ва унинг лисоний-нутқий хусусияти*. Филология фан. ном. дисс. Самарқанд.

The microfield of lexemes representing kinship relations in “Devonu Lugotit Turk”

Nilufar Azizova¹

Abstract

The article reflects the features of analysis based on the semantic field method, the issues of studying classic sources, in particular, the lexical units representing social relations in the «Devonu Lugotit Turk» based on the semantic field. The research carried out in the Uzbek language on the semantic field is described. It is noted that the semantic field is based on the semantic relations between lexemes, therefore, it reflects the processes related to lexeme semantics. It has been shown that the lexicon «Devonu lug'otit turk» covers various social spheres, creates a meaningful field, and consists of small microfields within itself. The analysis of the semantic field was analyzed on the example of lexemes representing kinship relations. The importance of the semantic field in illuminating the language features of classical sources, in determining the richness of the vocabulary, and in revealing the encyclopedic character is emphasized.

Key words: *vocabulary, semantic field, semantic relations, semantic processes, hyponymic, hyperonymic relations, social relations, kinship relations.*

References

- Abdiyev, M.B. 2005. *System analysis of sectoral lexicon (based on the materials of professions of Samarkand region)*. Philol. science. doc. diss. autoref. Tashkent.
- Abduvaliyev, M. 1988. *The field of unobstructedness and the syntactic units that make it up*. Uzbek language and literature.
- Abdushukurov, B. 2017. *“Kissasi Rabguzi” lexicon*. Philol. Doctor of Science thesis. Tashkent.
- Gulbadanbegim. 1959. *Humayunnama*. Tashkent: Science.
- Dadaboyev, H. 2017. *Linguistic features of “Devonu Lugotit Turk”*. Tashkent.
- Kochkortoyev, I. 1977. *Word meaning and its valence*. Tashkent.
- Iskandarova, Sh. 1998. *Problems of learning vocabulary based on the content field*. Tashkent: Science.

¹Nilufar Azizova – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti.

For citation: Azizova, N. 2022. “The microfield of lexemes representing kinship relations in “Devonu Lugotit Turk”. *Uzbekistan: Language and Culture. Linguistics* 4(1): 100-109.

Yoldoshev, B. 2001. *On the impact of field theory on linguistics. Issues of Uzbek philology*. Navoi.

Mirtojiyev, M. 2010. *Semasiology of the Uzbek language*. Tashkent: Classic word.

Покровская, Л.А. 1961. *Термины родства в тюркских языках*. Историческое развитие лексики тюркских языков. Москва.

Расулов, Р. 1991. *Лексико-семантическое групп глаголов состояния и их валентности*. Ташкент: Фан.

Kholmanova, Z. 2022. *Possibilities of semantic field and semantic network*. "Computer Linguistics: Problems, Solutions, Prospects" Proceedings of the International Scientific and Practical Conference. Vol. 1 no. 01.

Kholmanova, Z. 2009. *A lexical study of Boburnama*. Philol. science. diss. Tashkent.

Hojieva, H. 2001. *The field of honor in Uzbek and its linguistic-speech characteristics*. Ph.D. thesis in Philology. Samarkand.